# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

1931
TDIU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Eshov Mansur Po'latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
**Karimov Norboy G'aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To'lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning oʻrni ........ 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant

Qishloq xoʻjaligida sugʻorish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yoʻllari ........ 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent

Yangi Oʻzbekiston sharoitida oʻsimliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ........ 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi

"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ........ 20
**Umarov Faxriddin Umar oʻgʻli,** katta oʻqituvchi

Yoqilgʻi-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini taʼminlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ........ 26
**Ergashev Muhibbek Aslam oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi

Togʻli hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ........ 31
**Abduvakil Alimov Komil oʻgʻli,** tayanch doktorant

Taʼlim turizmining nazariy asoslari va Oʻzbekistondagi tendensiyalari ........ 38
**Maxmudova Nodira Oʻktamovna,** tayanch doktorant

Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ........ 43
**Poʻlatov Maʼmurjon Murodjon oʻgʻli,** tayanch doktorant

Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ........ 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.

Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ........ 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD

Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari ........ 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulugʻbekovna,** mustaqil tadqiqotchi

Davlat tomonidan qishloq xoʻjaligini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ........ 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid oʻgʻli,** magistrant

Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан ........ 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**

Oʻzbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ........ 73
**Usmonov Botir,** magistr

Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ........ 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant

Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlili ........ 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD

Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ........ 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant

Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ........ 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.

Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ........ 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon oʻgʻli,** mustaqil tadqiqotchi

Oʻzbekistonda toʻlov tizimining raqamli transformatsiyasining oʻziga xos xususiyatlari ........ 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normoʻminovna,** oʻqituvchi

Tijorat banki xizmatlarida taʼlim kreditining oʻrni va uni takomillashtirish masalalari ........ 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ........ 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari ... 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD

Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar ... 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o'qituvchi

Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ... 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**

Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ... 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent

Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ... 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent

Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ... 146
**Jo'rayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)

Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ... 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD

Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ... 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ... 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri ... 170
**Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li,** tayanch doktorant

The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ... 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD

Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ... 181
**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**

Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida ... 185
**Sadikova Ra'no Abdullayevna,** i. f. n., dots.

Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ... 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni ... 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ... 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,** dekan o'rinbosari

Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ... 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant

Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni ... 206
**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li,** mustaqil izlanuvchisi

Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ... 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish ... 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti

Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish ... 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ... 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o'qituvchisi

Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ... 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari ........ 242
**Berdiyev Akram O'ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ........ 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ........ 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ........ 263
**G'aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ........ 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari ........ 272
**Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ........ 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ........ 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ........ 288
**Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ........ 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ........ 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ........ 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ........ 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ........ 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ........ 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ........ 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойберганович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ........ 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ........ 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ........ 349
**To'rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития ........ 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике ........ 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari ........ 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari ........ 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari ........ 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari ........ 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari ........ 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство ........ 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni ........ 407
**Bekdavlat Aliyev**

O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ........ 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari ........ 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik ........ 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari ........ 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ........ 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari ........ 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari ........ 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ........ 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish ........ 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**



# YOQILG‘I-ENERGETIKA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA INVESTITSION FAOLIYATNING AHAMIYATI

**Ergashev Muhibbek Aslam o‘g‘li**
Mustaqil izlanuvchi, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akdemiyasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoqilg‘i-energetika korxonalarining investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar, investitsion faoliyatning shart-sharoitlari, moliyaviy barqarorlik va investitsion faoliyat tushunchasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar, yoqilg‘i-energetika kompleksidagi ishlarning holati, moliyaviy natijalar, korxonalarga tatbiq etilgan dasturlarning ko‘rsatikichlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: neft va gaz sanoati, gaz konlari, energiya resurslari, moliyaviy sog‘lomlashtirish, investitsion faoliyat, “O‘zbekneftgaz” AJ, monitoring tizimi, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы, связанные с совершенствованием финансирования инвестиционной деятельности предприятий ТЭК, условия инвестиционной деятельности, научно-теоретические взгляды на понятие финансовой устойчивости и инвестиционной деятельности, состояние дел в ТЭК. комплекс, финансовые результаты, показатели программ, применяемых на предприятиях.

Ключевые слова: нефтегазовая отрасль, газовые месторождения, энергетические ресурсы, финансовая консолидация, инвестиционная деятельность, АО “Узбекнефтегаз”, система мониторинга, финансовая устойчивость.

Abstract: This article analyzes the issues related to the improvement of the financing of investment activity of fuel and energy enterprises, the conditions of investment activity, scientific and theoretical views on the concept of financial stability and investment activity, the state of affairs in the fuel and energy complex, financial results, indicators of the programs applied to enterprises.

Key words: oil and gas industry, gas fields, energy resources, financial consolidation, investment activity, “Uzbekneftgaz” JSC, monitoring system, financial stability.

## KIRISH

Neft va gaz sanoati, neft va gaz konlarini qidirish, burg‘ulash, qazib chiqarish, uglevodorodlarni qayta ishlash, neft mahsulotlarini ishlab chiqarish, neft-kimyo va kimyo usunalarini ishlab chiqarish va iste’molchilarni neft mahsulotlari bilan ta’minlashgacha bo‘lgan barcha neft va gaz operatsiyalarini qamrab oladi. Neft va gaz sanoatida 30 ga yaqin ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, ular, avtobenzin, dizel yoqilg‘isi, aviakerosin va har xil turdagi moylar, mazut, bitum, har xil turdagi polietilen, tovar xoldagi tabiiy va suyultirilgan gaz, neftkimyo va kimyo uskunalari, suyultiriligan gaz uchun ballonlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. So‘nggi yillarda yoqilg‘i-energetika tarmog‘ini kompleks rivojlantirish hamda energiya resurslariga tobora oshib borayotgan ehtiyojni ta’minlashning muhim omili bo‘lgan energiya manbalarini diversifikatsiya qilish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Respublika iqtisodiyoti va aholisining energiya resurslariga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirish, neft va gaz xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy sog‘lomlashtirilishini ta’minlash, sog‘lom raqobatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy raqamli texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv usullarini joriy etish maqsadida xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ–4388-son “Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash, neft-gaz tarmog‘ini moliyaviy sog‘lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1] qaroriga muvofiq bugungi ushbu sohada tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Neft va gaz sanoatining investitsiya siyosati, avvalo sohani diversifikatsiya qilish va neft va gaz resurslarini chuqur qayta ishlashni ta’minlash uchun yuqori texnologiyalar bilan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik tushunchasi to'g'risida chet el va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar, kitoblar va ta'riflar berilgan. Iqtisodiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarda "moliyaviy barqarorlik", mazmun-mohiyatining turlicha tavsiflari mavjud.

Moliyaviy barqarorligni ta'minlashda investitsion faoliyat to'g'risida ham olimlarning ilmiy izlanishlari va qarashlari mavjud.

Investitsion faoliyat va uning korxona faoliyatiga ta'siri tug'risida xorij olimlaridan Dj. Robert, U. Sharp, L. Gitman, L. I. Yuzvovich, Antipova O. M, S. Abramov, V. Babushkin, N. Baturina, V. Bocharov, D. Endovitskiy, E. Xazanovich, E. Mixaylova, L. Orlova, A. Neshitoy, Y. Orlova, L. Igonina, G. Podshivalenko, D. Shevchuk, L. Valinurova, A. Ivasenko [2] va boshqalarning asarlarida keng ta'rif berilgan.

Mahalliy olimlarimiz tomonidan N. Qo'ziyevaning doktorlik dissertatsiyasi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari, N. Karimovning ham ishi iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolariga qaratilgan. Bundan tashqari, S. Nuriddinov, N. Oblomurodov, D. Rustamova, N. Kenjayev, M. Raimjanova, H. Imomov, R. Saidov, S. Umarov, V. Golishev, G. Mahmudova, D. Xo'jamqulov, F. Hamidova, M. Sultonboyevalarning nomzodlik dissertatsiyalarida esa investitsion muhitni yaxshilash va jozibadorligini oshirishning moliyaviy asoslari, korxona va jamiyatda investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish masalalari, xususiylashtirilgan korxonalarda portfelli investitsiyalarni jalb qilish yo'llari, uy xo'jaliklarida investitsiyalashni takomillashtirish yo'nalishlari, investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirish masalalari, investitsion siyosatni faollashtirish omillari, agrar sohani investitsiyalash samaradorligini oshirish yo'nalishlari, investitsiya faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish, O'zbekiston iqtisodiyotining nodavlat sektorida investitsiyalarni moliyalashtirish, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorij investitsiyalarini jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari, O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish, O'zbekiston Respublikasida investitsion fondlarni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish, O'zbekiston iqtisodiyotida markazlashgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo'llariga doir va ma'lum darajada, investitsion faoliyatni moliyalashtirishga daxldor bo'lgan muammolar ham ko'rib chiqilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining ilmiy asarlari o'rganilgan holda, yoqilg'i-energitika sohasida investitsiyalar va investitsion faoliyatni amalga oshirish orqali moliyaviy jihatdan barqarorlikni ta'minlovchi manbalar va ko'rsatkichlar tahlili o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarning qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillarimizning ko'rsatishicha, respublikamiz iqtisodiyotining xususiy sektorida investitsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi takomillashib, investitsiyalash shakl va manbalarining ko'payishi kuzatilmoqdaki, bu holatni ijobiy tendensiya sifatida baholash lozim. Shuni e'tiborga olib, bozor munosabatlari sharoitida investitsion faoliyatni amalga oshirish va rivojlantirishning asosiy, qulay shart-sharoitlari, fikrimizcha, quyidagi, ya'ni:

- bo'sh turgan pul mablag'larini jamlash va ularni investitsion faoliyatga jalb qilish orqali investitsiyalar bilan bog'liq talab va taklifni muvofiqlashtiradigan investitsion bozorning shakllantirish;
- investitsion faoliyatni amalga oshirishni moliyaviy jihatdan ta'minlovchi manbalarning sezilarli darajada ko'payishi;
- xususiy kapitalning davlat kapitali ustidan ustuvorligining oshib borishi;
- investitsion faoliyatda ishtirok etuvchi mulkchilikning turli shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyekt va obyektlar sonining muttasil o'sish sur'atiga ega bo'layotganigida o'z ifodasini topadi.

Neft-gaz korxonalarida investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar tadqiq etilayotgan paytda,eng avvalo, o'ziga xos fundament rolini o'ynovchi "investitsiyalar", "investitsion faoliyat", "investitsion siyosat" va "investitsion faoliyatni moliyalashtirish" xususida aniq pozitsiyaga ega bo'lmoq lozim. Shu munosabat bilan bu o'rinda quyidagilardan kelib chiqish maqsadga muvofiq:

1. Foyda (daromad, naf) yoki boshqa foydali samara olish maqsadida subyektlar tomonidan xarajatlar tarzida nisbatan uzoqroq muddatlarda joylashtiriluvchi turli ko'rinishlarga ega bo'lgan mablag'lar investitsiyalar deyiladi.



IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

2. Foyda (daromad, naf) olishni yoki boshqa foydali samaraga erishishni ko‘zda tutib, nisbatan uzoq davom etadigan va turli mablag‘lardan foydalangan holda investitsiyalashtirish yoki investitsiya jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyat investitsion faoliyat deb ataladi;
3. Investitsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida amaldagi tartib qoidalarga muvofiq moliyalashtirishni ochish, kredit taqsimlovchilarga resurslarni berish, pul mablag‘larining maqsadli va iqtisod qilib samarali sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish investitsion faoliyatni moliyalashtirish deyiladi.

Investitsiyalarning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi uning muhim xarakterli belgilarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin.

**Investitsiyalarning xarakterli belgilari**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Foyda yoki boshqa foydali samara olishga qaratilganlik va hamma vaqt ham iqtisodiy foydalilikka muvofiq kelmaslik | Turli ko‘rinishlarga (moddiy, nomoddiy, moliyaviy, intellektual, boylik va h. k.)ega bo‘lgan mablag‘lardan iborat ekanlik | Mablag‘larning sarflanishini taqozo etish va ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilganlik | Mablag‘larning xarajatlar ko‘rinishini olishi va ularda kapitalni joylashtirish riskiningmavjudligi | Nisbatan uzoqroq muddatda joylashtirilishni talab etishi va ular uchun individuallikning xosligi |

1-rasm: Investitsiyalarning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi xarakterli belgilar

Hozirgi kunda investitsion faoliyat yuritish uchun mavjud sharoitlarning yuqori darajadagi noaniqligi prognoz ma’lumotlari asosida hisob-kitoblarning ishonchliligini pasaytiradi va statik ko‘rsatkichlardan foydalanish investitsiya salohiyatidagi o‘zgarishlar (o‘sish, pasayish) tendensiyalari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Sanoat tarmog‘ining investitsion salohiyatini baholashda investitsion salohiyatni amalga oshirish natijasida investitsion resurslar ko‘rsatkichlari, investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari va tarmoqdagi investitsion faollik ko‘rsatkichlarini kiritish maqsadga muvofiq. Investitsion resurslar indikatori sanoatning sanoat mahsuloti birligini investitsiya resurslari bilan ta’minlash haqida tasavvur beradi. Umumiy holatda, investitsiya resurslarini inson, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslar bilan cheklash maqsadga muvofiq.

1-jadval: Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi[1] (qabul qilingan mablag‘lar) (jami foizda)

| Hududlar | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi | 47,5 | 42,9 | 44,0 | 42,1 | 42,4 | 43,8 | 45,6 | 52,7 | 58,0 | 70,7 | 59,2 | 62,0 | 59,4 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 42,7 | 38,7 | 51,5 | 44,7 | 62,4 | 72,2 | 64,8 | 37,2 | 62,1 | 65,7 | 60,9 | 60,1 | 62,0 |
| Andijon | 22,2 | 26,6 | 28,1 | 28,7 | 31,8 | 33,2 | 32,4 | 34,4 | 52,2 | 61,8 | 52,4 | 62,6 | 63,9 |
| Buxoro | 70,3 | 65,6 | 64,7 | 62,5 | 58,9 | 48,2 | 60,5 | 79,4 | 64,5 | 71,1 | 61,7 | 69,0 | 67,4 |
| Jizzax | 29,8 | 28,8 | 33,2 | 45,7 | 41,2 | 41,6 | 37,1 | 44,6 | 55,7 | 77,5 | 79,1 | 67,8 | 66,6 |
| Qashqadaryo | 36,3 | 31,4 | 42,1 | 42,8 | 36,8 | 39,0 | 46,5 | 60,9 | 66,4 | 77,8 | 78,4 | 67,3 | 61,7 |
| Navoiy | 58,1 | 44,3 | 46,4 | 35,8 | 27,1 | 39,2 | 50,0 | 53,5 | 62,9 | 84,3 | 74,2 | 71,4 | 61,2 |
| Namangan | 27,9 | 27,0 | 30,1 | 36,7 | 42,3 | 44,5 | 49,1 | 50,1 | 70,3 | 70,6 | 58,1 | 63,3 | 61,6 |
| Samarqand | 22,1 | 24,7 | 27,0 | 27,3 | 29,5 | 26,9 | 23,7 | 31,6 | 42,5 | 61,5 | 47,0 | 59,0 | 67,5 |
| Surxondaryo | 44,0 | 32,5 | 36,6 | 42,4 | 37,9 | 38,8 | 41,3 | 50,0 | 65,1 | 84,3 | 76,3 | 70,6 | 67,0 |
| Sirdaryo | 44,1 | 42,5 | 52,0 | 57,7 | 55,7 | 58,8 | 58,8 | 61,3 | 65,1 | 79,6 | 70,1 | 80,4 | 89,2 |
| Toshkent | 47,2 | 51,8 | 37,8 | 42,5 | 48,8 | 46,4 | 41,4 | 48,6 | 49,0 | 61,4 | 48,4 | 54,6 | 53,5 |
| Farg‘ona | 38,4 | 43,2 | 50,7 | 44,7 | 37,1 | 36,2 | 38,2 | 32,1 | 53,9 | 65,3 | 56,7 | 58,3 | 62,0 |
| Xorazm | 36,6 | 44,5 | 36,7 | 41,6 | 36,9 | 32,5 | 29,5 | 35,5 | 50,9 | 67,2 | 58,8 | 54,2 | 51,7 |
| Toshkent sh. | 58,6 | 51,3 | 48,4 | 37,1 | 34,6 | 35,6 | 43,9 | 47,2 | 50,3 | 63,4 | 46,0 | 55,3 | 44,9 |

Iqtisodiyot rivojlanishi turlicha bo‘lganligi bois, benchmarking usulini qo‘llash tahlil natijalarini yanada aniqlashtirishga, optimal qarorlarni qabul qilishga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekiston Respublikasida 2010–2022-yil davomida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy

1 https://stat. uz/uz/rasmiy-statistika/investments

kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi hududlar kesimida ko‘rsatilgan bo‘lib, jadvaldagi ma’lumotlar asosida Respublikada o‘zlashtirilgan investitsiyalarda o‘sish sur’ati aks etganini kurishimiz mumkin. So‘nggi yillarda Respublikada neft-gaz korxonalari investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirishni va korxonlarning moliyaviy barqarorligi ta’minlash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan hukumatning tegishli qaroriga asosan “O‘zbekneftgaz” AJ tasarrufidagi konlarda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, monitoring tizimini joriy qilish hamda hisob tizimini tezkor amalga oshirish, shuningdek, konlardan tabiiy gazni qazib chiqarish va uzatish texnologik jarayonlarida “E-kon” loyihasini bosqichma-bosqich tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur pilot loyihasi doirasida Sho‘rtan, Muborak va Vodiy neft va gaz qazib chiqarish boshqarmalarida umumiy 203 bosim o‘lchov, 110 harorat o‘lchov va 11 aloqa chiqaruv vositalari o‘rnatilgan. Shuningdek, sentyabr oyida “Janubiy Tandircha”, “Sho‘rtan”, “Sharqiy Berdax”, “Shimoliy Berdax”, “Dengizko‘l”, “Somontepa”, “Tegirmon” konlariga jami 666 bosim o‘lchov va 333 harorat o‘lchov vositalari o‘rnatilishi rejalashtirilgan.

“E-kon” loyihasida ko‘zlangan konsepsiyani amalga oshirish borasida dasturiy ta’minot ishlab chiqilmoqda. Pilot doirasida Sho‘rtan, Vodiy neft va gaz qazib chiqarish boshqarmalarida o‘rnatilgan o‘lchov vositalaridan radio aloqa orqali kelayotgan ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish funksiyalari dasturiy ta’minotda test rejimida ishlatib ko‘rilmoqda.

Xususan, Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli “Sho‘rtan” konidagi 20, 24-sonli gaz yig‘uv punktlariga tegishli quduqlar ko‘rsatkichlarini onlayn dastur “E-kon” loyihasi orqali kuzatish tizimi sinov tariqasida tashkil etildi. “E-kon” tizimini joriy etilishi natijasida uzog‘i bilan yarim soat ichida konlardagi muammo haqida tezkor tahliliy ma’lumotlarni jamlash va kon nazoratchilariga yetkazish imkoni yaratilgan. Bu esa vaqtdan yutish va gaz sarfini me’yorida ushlab turishni ta’minlamoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, kelgusida 1 ming 500 ta quduqda bosim va harorat o‘lchov vositalari o‘rnatilib, “online” tarzda ma’lumot yig‘ish imkoniyati yaratiladi. 80 ta gaz yig‘uv joyida tabiiy gazni tayyorlash va uning sarfini o‘lchash qurilmalari o‘rnatiladi. Operatorlar faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Barcha o‘rnatilgan qurilma va o‘lchov asboblaridan olinayotgan ma’lumotlarni tahlil qilish va boshqarish uchun yagona dasturiy ta’minot ishlab chiqiladi. Buning natijasida qazib chiqarish jarayonlarida inson omili aralashuvi kamaytiriladi, raqamlashtirish darajasi oshiriladi. Qazib chiqarish “online” rejimda tezkor boshqaruv ta’minlanadi. Ma’lumotlarni qayta ishlashda yangi dasturiy mahsulotlardan foydalanish ta’minlanadi. Geologik-texnik chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish orqali tabiiy gaz qazib chiqarish oshiriladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda yoqilg‘i-energetika korxonalarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishda o‘z investitsiya manbalari yetishmasligi kuzatiladi. Moliyaviy natijalarining yaxshi bo‘lmasligi natijasida korxonalarning moliyaviy ahvoli yomonlashadi, natijada ular investitsion faoliyatni moliyalashtirishda tashqi moliyalashtirish (kredit) manbalariga ehtiyoj sezadi. Yoqilg‘i-energetika korxonalarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishga mablag‘larni jalb qilish shartlaridan biri investitsion hamkorlik sohasida orttirilgan tajribani hisobga olgan holda investitsiyalarning tabiiy oqimini ko‘paytirish hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi kundagi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining ahvoli, ko‘p jihatdan, yoqilg‘i-energetika kompleksidagi ishlarning holati bilan belgilanishi hech kimga sir emas. Chunki aynan ular davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda hal qiluvchi rollardan birini o‘ynaydi. Shuningdek, valyuta tushumlarining katta qismi ham shu korxonalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bir vaqtning o‘zida, ular mamlakatimiz savdo balansining asosiy hajmini tarkib toptirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, mamlakatimiz yoqilg‘i-energetika korxonalarida investitsion jarayonlarni faollashtirish va ularning moliyaviy ahvolini yaxshilashning muhim omili.

Gaz ta’minoti tizimida investitsiyalar jalb qilish orqali yangi dasturlar joriy qilish. Ushbu sohaga gaz yetkazib beruvchi va iste’molchi o‘rtasida gaz uskunalariga profilaktik va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni tartibga solish va ularni naqd pulsiz amalga oshirishga imkon beruvchi va abonentning shaxsiy ma’lumotlari, xonadon geolokatsiyasi va telefon raqami, xizmat sifatini baholashni o‘z ichiga olgan dastur yaratish orqali sohaning xizmat ko‘rsatish sifat darajasi va moliyaviy tejamkorlikga erishish imkonini beradi.

Soliq tizimini takomillashtirish. Korxonalarga nisbatan yurgizilayotgan soliq siyosati, fikrimizcha, tarmoq korxonalarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirishga yetarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsata olmayapti. Buning asosiy sababi shundaki, neft va gazning murakkab va qiyin qazib olinuvchi zaxiralarini ishlab chiqarishga jalb qilishning strategik vazifasi nafaqat qimmat turadigan texnika va texnologiyalarning qo‘llanilishini, balki uni hal qilish (yechish uchun) qulay iqtisodiy sharoitlarni yaratadigan soliq rejimining bo‘lishini ham talab qiladi.

Korxonalarida investitsion loyihalarini moliyalashtirishda innovatsion vositalarini foydalanish va ularni amalga oshirish.

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

Samarali tashkil etilgan investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmgina korxonaning yuqori samaradorligini ta’minlaydi. Bu esa, bunday tizim korxonaning oldiga qo‘yilgan maqsadlariga erishishga va ularni amalga oshishiga yordam beradi.

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 09.07.2019-yildagi PQ–4388-sonli qarori. https://lex. uz/docs/4410278.
2. Роберт Дж. Х. Инвестирование. – М.: АГАТА, 2005. – 288 с.
3. Гитман Л., Лоренц Дж. Основы инвестирования: учебное пособие. Пер. с англ. – М.: ДЕЛО, 1997. – 1008 с.;
4. Шарп У. Инвестиции. Пер с англ. – М.:ИНФРА-М, 2006. – 744 с.
5. Абрамов С. И. Инвестирование. – М.: “Экономика”, 2000. – 440 с.
6. Бабушкин В. А., Батурина Н. А. Анализ инвестиционной привлекательности организаций: учебник. – М.: КНОРУС, 2010. – 376 с.
7. Бочаров В. В. Инвестиции. 2-ое издание. – СПб.: Питер, 2010. – 384 с.
8. Ендовицкий Д. А.,Хазанович Э. С. Инвестиционная стратегия: учебное пособие.
9. Э. С. Хазанович, А. М. Ажлуни, А. В. Моисеев. –М.: КНОРУС, 2010. – 304 с.
10. Михайлова Э. А., Орлова Л. Н. Экономическая оценка инвестиций: Учебноепособие. – Рыбинск: РГАТА, 2008. – 476 с.
11. Нешитой А. С. Инвестиции. –М.: Дело, 2008. – 316 с.
12. Орлова Е. Р. Иностранные инвестиции в России: учебное пособие / Е. Р. Орлова, О. М. Зарянкина. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Изд-во “Омега”, 2009. – 204 с.
13. Игонина Л. Л. Инвестиции. – М.: Экономист, 2005. – 478 с.
14. Подшиваленко Г. П. Инвестиции: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2004. – 208 с.
15. Шевчук Д. А. Организация и финансирование инвестиций. – М.: Высшее образование, 2006. – 272 с.
16. Kuziyeva N. R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. 2008.
17. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
18. https://stat. uz/uz/rasmiy-statistika/investments.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.